

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
QORAQALPOG'ISTON TIBBIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi

№ 23/11-2/1

“31” VIII 2023yil



“TASDIQLAYMAN”

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti

O.A. Ataniyazova

“31” VIII 2023 yil

«KOMMUNAL GIGIENA» MODUL DASTURI

Bilim sohasi:	900000	- “Sog’liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot”
Ta’lim sohasi:	910000	- “Sog’liqni saqlash”
Ta’lim yo’nalishi:	60910400	- “Tibbiy-profilaktika”

Nukus – 2023

Fan/modul kodi Kommunal gigiena	O'quv yili 2023-2024	Semestr 5-10	Kreditlar 4,5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili Qoraqalpoq/o'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari	
Fanning nomi	Semestr	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Kommunal gigiena	5-6	108	54	162
Kommunal gigiena	7-8	108	63	171
Kommunal gigiena	9-10	108	63	171

1. O'quv modulining maqsadi va vazifalari

1.1. Modulning maqsadi – talabalarda kommunal gigienaning dastlabki ilmiy asoslari, gigienik tekshirish usullari va sog'lomlashtirish tadbirlarining asosiy prinsiplarini talabalar tomonidan o'zlashtirilishi ta'minlash hisoblanadi.

1.2. Modulning vazifalari:

Modul talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi:

kommunal gigienaning asoslari bilan tanishtirish;

- kommunal gigienaning har bir bo'limini asosiy xususiyatlari bilantishtirish;
- eng dolzarb gigienik va ekologik muammolar bilan tanishtirish;
- gigienik tekshirish usullari bilan tanishtirish asoslari;
- odam organizmi va atrof muhit bilan o'zaro ta'sirlanish asoslari, gigienik me'yorlashtirish va reglamentlashtirishning asoslari bilan tanishtirish;

- inson organizmiga atrof muhit omillari salbiy ta'sirini kamaytirishga yo'naltirilgan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish asoslari bilan tanishtirishdan iborat;

- tibbiy-biologik, tashqi muhit omillari va ekologik omillarning zararli ta'sirini bartaraf qilish maqsadida zaruriy gigienik me'yorlar, qoidalarini amaliyotga tadbqiq etish ko'nikmalarini hosil qilish;

- talabaning mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan standartga mos amaliy ko'nikmalarni assistent-talaba, talaba-fantom uslubida avtomatizm darajasiga

etkazish;

- atrof muhitning zararli omillarni ta'sirini kamaytirish bo'yicha sog'lomlashtiruvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirish.

2.1. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

2.2. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

5-6 semestr:

1- mavzu. Modulining maqsadi, vazifasi, usullari va rivojlanish tarixi Aholi turar joylarida tashqi muhitning inson salomatligiga ta'sirini o'rganish. Aholi turar joylarini sog'lomlashtirish bo'yicha zaruriy sanitar me'yor va profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish. Kommunal gigiena sohasida sanitariya qonunlarining asoslarini ishlab chiqish. Tashqi muhit omillarini inson organizmiga ta'sirini laborator, instrumental, fiziologik, statistik va matematik modellashtirish usullari bilan aniqlash.

2- mavzu. Ichimlik suvini inson salomatligiga va turmush sharoitlariga ta'siri. Ichimlik suvi sifatini meyorlashtirishning gigienik asoslari.

Ichimlik suvining kimyoviy tarkibi. Suv tarkibiga bog'liq bo'lgan yuqumli va yuqumsiz kasalliklar. Suv tarkibidagi kimyoviy moddalarga bog'liq bo'lgan geoprovinciyalar haqida ma'lumotlar. Suv orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarni yuqish yo'llari. Suvni kimyoviy tarkibi, suvda kimyoviy moddalarni me'yorlashtirish prinsiplari. Suvning qattiqligi, suvdagi nitrit va nitratlar miqdori. Suvda xloridlar va sulfatlarni me'yorlashtirish asoslari.

3- mavzu. Ichimlik suvini yaxshilash usullarini gigienik tavsifnomasi Xo'jalik ichimlik suv taminoti tizimida suv sifatini yaxshilashning asosiy usullari: tindirish, rangsizlantirish, zararsizlantirish. Tindirgichlar turi, ularning samaradorligi. Filtirlar tasnifi, ularni qo'llash usullari. Suvni tozalashning maxsus usullari. Temirsizlantirish usuli va uni qo'llash samaradorligi. Ftorlash va ftorsizlantirish usullari. Suvni chuchuklashtirishda qo'lladigan qurilmalar samaradorligi. Suvni tozalashda qo'llaniladigan qurilmalarni texnik va gigienik samaradorligi.

4- mavzu. Suv havzalarini sanitariya muhofazasi muammolarini yangicha holati. Suv havzalarining ifloslanishini muhofazalash muammolarining yuzaga kelishi. Muammoning xorij ellarda rivojlanishi va bosqichlari. Muammoning O'zbekiston Respublikasidagi hozirgi holati. Suv havzalarining ifloslanishining aholi salomatligiga ta'siri. Suv havzalarini ifloslantiruvchi manbalarning qiyosiy tavsifi. Suv havzalarini ifloslanishi aholining sanitariya turmush tarziga va salomatligiga ta'siri.

5-mavzu. Suv havzalarini ifloslanishdan muhofaza qiluvchi tadbirlar. Kanalizatsiya va uning sanitar-epidemiologik ahamiyati. Suv havzalarining sanitariya muhofazasi. CHiqindi suvlarning tozalashning asosiy vazifalari. CHiqindi suvlarini mexanik, biologik va

zararsizlantirish ularda qo'llaniladigan inshootlari, tozalash inshootlarining ish samaradorligini ko'rsatuvchi mahsus ko'rsatkichlar. Sanoat chiqindi suvlari. Sanoat chiqindi suvlarini o'ziga hos xususiyati. Sanoat chiqindi suvlarini tozalashda sanitar texnik chora tadbirlar. Kanalizatsiya shahobchalari, ularni sog'lomlashtirish va epidemik kasalliklarni oldini olishda ahamiyati. Kanalizatsiya tarmoqlarining turlari.

6- mavzu. Kimyoviy moddalarni suv havzalari suvlarida gigienik me'yorlashtirish prinsiplari. Suv havzalari suvida kimyoviy moddalarning ruhsat etilgan me'yorlarining (REM) xalq xo'jaligidagi ahamiyati. REM tibbiyot sohasidagi ahamiyati. REM ilmiy izlanish sohalaridagi ahamiyati. REM suvning organoleptik holatida o'rganish. REM suvning o'z-o'zini tozalash holati ta'sirida o'rganish. REM suvning sanitariya-toksikologik ta'sirida o'rganib, bo'sag'a miqdorini aniqlash. REM matematik uslublar bilan aniqlash.

7-8 semestr:

7- mavzu. Aholi turar joylari atmosfera havosini ifloslanish muammolari. O'zbekiston Respublikasini atmosfera havosini sanitariya muhofazasi muammolari o'ziga hos tomonlari. Atmosfera havosi gigienasi bo'yicha Davlat sanitariya nazorati. Atmosferani ifloslantiruvchilarni konsentratsiyasining sanitar gigienik ahamiyati. Atmosfera havosini ifloslanish ta'sirini o'rganish usullari. Atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha tadbiriy choralalar.

8- mavzu. Atmosfera havosini ifloslanishini atrof muhitga va aholi salomatligiga ta'siri. Atmosfera havosining ifloslanishi va aholi salomatligi. O'zbekiston Respublikasida atmosfera havosini ifloslanish va aholi salomatligi. Atmosfera havosining ifloslanishining aholi salomatligiga o'tkir va surunkali ta'siri, undan kelib chiqadigan kasalliklar. Atmosfera havosining ifloslanishining aholi salomatligiga to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) va bilvosita ta'siri. Atmosfera havosining ifloslanishining aholi salomatligiga va sanitariya turmush tarziga ta'sirini o'rganish usullari.

9- mavzu. Atmosfera havosi sanitariya muhofazasi bo'yicha tadbiriy choralalar. Zararli moddalarni va o'simliklarni himoya qilish vositalarini atmosfera havosida gigienik me'yorlashtirish prinsiplari va usullari. Zararli moddalarni me'yorlashtirish metodologik yondoshish. Gigienik me'yorlashtirish prinsiplari. Maksimal bir marotabalik, o'rta sutkalik, REK me'yorlashtirish ko'rsatkichlari. Atmosfera havosidagi zararli moddalarning me'yorlashtirishda qonunchilik. Atmosfera havosining sanitariya muhofazasiga qaratilgan chora-tadbirlar, asosiy bosqichlari.

10- mavzu. Aholi turar joylari tuprog'ini ifloslantiruvchi manbalar. Tuproq tushunchasi va uning gigienik ahamiyati. Xalq xo'jaligining hozirgi sharoitda industirlash va kimyolashtirish natijasida tuproqning ifloslantiruvchi manbalar. Tuproqning

asosiy hususiyatlari va ularning ahamiyati. Tuproqning tarkibi va uning ahamiyati. Kimyoviy va mikrobiologik ko'rsatkichlar bo'yicha tuproqning sanitariya holatini baholash.

11- mavzu. Aholi turar joylarini sanitariya tozalash tizimlarini gigienik baholash. Aholi yashaydigan joylarni chiqindilardan sanitariya tozalash uslublari va undan kelib chiqadigan vazifalar. Aholi yashash joylarda chiqindilarning to'planishlarining sanitariya va epidemiologik ahamiyati. CHiqindilar klassifikatsiyasi va to'planish me'yorlari. CHiqindilarning yig'ish va zararsizlantirish tizimlari. CHiqindilarni zararsizlantirish usullari. Sanoat chiqindilarni zararsizlantirish usullari.

12- mavzu. Kimyoviy moddalarni tuproq muhitida gigienik me'yorlashtirish. Kimyoviy moddalarning tuproq orqali ko'chib o'tishi, uning inson organizimiga ta'siri. Tuproqdagi kimyoviy moddalarning atmosfera havosiga ko'chib o'tishi. Tuproqdagi kimyoviy moddalarning hayvonot va o'simlik olamiga ko'chib o'tishi. Tuproqning ifloslanishlarida kimyoviy manbalarning ahamiyati. Kimyoviy moddalarning tuproqda me'yorini aniqlashning asosiy usullari.

9-10 semestr:

13- mavzu. Turar joy binolarini rejalashtirishning gigienik asoslari. Isitish, ventilyasiya, yoritilganlikka qo'yiladigan gigienik talablar. Turar joy binosi haqida tushuncha va uning evolyusiyasi. O'zbekiston Respublikasida va xorij ellarda turar joy binolarining gigienik asoslari. Turar joy binolari va salomatlik. Turar joy binolari muammolarining echilishida kommunal gigiena modulining vazifalari. Turar joy binolari turlari va ularga qo'yiladigan gigienik talablar. Isitishga, ventilyasiyaga va yoritilganlikka qo'yiladigan gigienik talablar. Nogiron va kam harakatlanadigan aholi guruhi foydalanadigan turar joy va jamoat binolarini loyihalashga qo'yiladigan gigienik talablar.

14- mavzu. Davolash profilaktika muassasalari rejalashtirilishi, qurilishi va jihozlanishiga qo'yiladigan gigienik talablar. Davolash profilaktika muassasalaridan xosil bo'luvchi chiqindilarini yig'ish, saqlash, olib ketishga qo'yiladigan gigienik talablar. Davolash profilaktika muassasalarining (DPM) tarixi O'zbekistonda DPMLarining tarixi. DPMLarining qo'llaniladigan qonuniy me'yoriy hujjatlar. DPMLarning qurilish tizimlari va ularni gigienik qiyosiy tasnifi. DPM umumiy tartibi va xonalarga qo'yiladigan gigienik talab. DPM ichki kasalliklarni tarqalishini oldini olish choralari.

15- mavzu. Aholi turar joylarini rejalashtirishi va qurilishining gigienik asoslari. Aholi turar uylarining, yashash joylarining rejalashning gigienik ahamiyati (aeratsiya, insolyasiya, kichik iqlim va x.k.). Kvartal va kichik tumanlari (mavzularni) tuzilishi to'g'risida tushuncha. Qurilish protsenti, aholi turar joylarini mintaqalarga bo'linishi, aholi zichligi netto va brutto ko'rsatgichi. SHahar, qishloqning yuzaga kelishida guruhlarining ahamiyati.

16- mavzu: SHaharlar rejasida yo'l tarmoqlari, yashil o'simliklarning roli va gigienik ahamiyati. Yo'l tarmoqlarini turkumlari. Yo'l tarmoqlarini tuzilishi. Er osti yo'l tarmoqlariga qo'yiladigan gigienik talablar. Yo'l tarmoqlarining obodonlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Ko'kalamzorlashtirishning turlari. Ko'kalamzorlashtirish uchun ajratilgan maydon. Ko'kalamzorlashtirishning iqlim sharoitigava inson salomatligiga

ta'sirini baholash. Ko'kalamzorlashtirishning me'yorlari.

17- mavzu. Fizik omillarga qo'yiladigan gigienik talablar. Tashqi muhitning fizik omillari va inson. SHovqin, uning tavsifi. SHahardagi shovqin manbalari va ularning qiyosiy xarakteristikasi. SHovqinning aholi salomatligiga ta'sirini gigienik baholash. Elektr magnit maydonlari (EMM) haqida tushuncha va uni keltirib chiqaruvchi manbalar. EMM va aholi salomatligi. Tashqi muhitda biologik omillarni me'yorlashtirishning metodologik uslubi va bosqichlari.

18- mavzu. Tashqi muhit ekologiyasi. Atmosfera havosi gigienasi sohasida DSN. Ekologiya va aholi salomatligi. Ekologik omillar. Ekologik xavf va uning turlari. Iqlim omillari va ularning ekologiyaga ta'siri. Ekologik xolatni o'rganish va uni baholash. Atmosfera havosi gigienasi sohasida DSN va uning shakllari, DSN o'tkazishda vrachning xuquqlari, vazifalar va burchlar. Atmosfera havosi gigienasida DSN o'tkazishning o'ziga xos tomonlari.

3. Amaliyot, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

3.1. Amaliy (seminar) mashg'ulotlarining mavzulari ro'yxati:

5-6 semestr:

1- mavzu. Ichimlik suviga qo'yiladigan gigienik talab. Ichimlik suvi sifatini ekologigienik baholash uslubini o'rgatish. Ichimlik-xo'jalik suv ta'minoti uchun suv ma'nbalarini tanlash metodikasi.

2- mavzu. Ochiq va er osti suv ta'minoti manbalari atrofida sanitariya himoya mintaqalarini tashkil qilish. SHM chegaralarini hisoblash usuli bilan aniqlash.

3- mavzu. Ichimlik suvini tozalash usullarini gigienik baholash. Asosiy va maxsus usullarda qo'llanuvchi tozalash qurilmalarini ish samaradorligini ekologo-gigienik baholash.

4- mavzu. Suv ta'minoti ma'nbalarini va tozalash inshootlarini sanitar- texnik, sanitar-topografik, sanitar-bakteriologik tekshirish,

5- mavzu. Suvdan sinama olish, ichimlik suvi sifatining laboratoriya tahlili va sifatini ekologo-gigienik baholash.

6- mavzu. Suvning koagulyasiyasi. Suvni ishkoriyligi va qattiqligini aniqlash metodikasi. Koagulyantning optimal dozasi aniqlash.

7- mavzu. Koagulyasiyaning samaradorligini ekologo-gigienik baholash.

8- mavzu. Xlorli ohaktosh tarkibidagi faol xlor miqdorini, xlorning optimal dozasi va qoldiq xlor miqdorini aniqlash uslubi. Sanitariya xulosani tuzish.

9- mavzu. Aholi yashash punktlarida suv ta'minoti loyihalarini sanitar ekspertizasi va xulosa berish.

10- mavzu. Suv havzalarini ifloslantiruvchi manbalarni aniqlash va ularni suvga va aholi salomatligiga, suvdan foydalanishga, suv ekologiyasiga ta'sirini o'rganish.

11- mavzu. CHiqindi suvlarni tozalash inshootlarini texnik va gigienik ko'rsatkichlari

bo'yicha samaradorligini ekologo-gigienik baholash.

12- **mavzu.** CHiqindi suvlardan namunalar olish uslubi. CHiqindi suvlarlarni laboratoriya tahlilini o'tkazish. (harorat, rangi, hidi, tiniqligi, muallaq moddalar, erigan kislorod miqdori, KBE, oqsil uchligi).

13- **mavzu.** CHiqindi suvlarni suv havzalariga tashlash sharoitlarini aniqlash usullari. Suv havzalari ekologiyasi muammolarini echish yo'llarini o'rganish. Kanalizatsiya loyihalarini sanitariya ekspertizadan o'tkazishda sanitariya shifokorining taktikasi.

14- **mavzu.** Tuproq muhitini ifloslantiruvchi manbalar va inshootlarni sanitariya tekshirishni o'ziga xos tomonlari.

15- **mavzu.** Tuproqdan olingan sinamalarni laboratoriyada tekshirish natijalariga asoslanib fizik-kimyoviy xususiyatlarini gigienik baholash. Tuproq muhitini tozalik darajasini va sanitariya tozalash tizimlarini ekologo-gigienik baholashga o'rgatish.

7-8- *semestr:*

1- **mavzu.** Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar atrofida tashkil etiladigan sanitariya himoya mintaqalarini (SHM) tashkil kilinishini gigienik baholashga o'rgatish.

2- **mavzu.** Statsionar nazorat postlarining natijalari bo'yicha AH holati ekologo-gigienik baholash, "CHang guli" va "Gaz guli" tuzish usullarini o'rgatish.

3- **mavzu.** Atmosfera havosidan laboratoriya usullari bilan ifloslanishini, tozalash inshootlarini gigienik va texnik samaradorligini ekologo-gigienik baholashga o'rgatish.

4- **mavzu.** Aholi yashash joylaridagi sanoat korxonalarini atmofera havosini, aholi salomatligiga turmush sharoitiga va ekologik holatga ta'sirini baholash usullarni o'rgatish.

5- **mavzu.** Tozalash inshootlarini gigienik va texnik samaradorligini ekologo- gigienik baholashga o'rgatish.

6- **mavzu.** Atmosfera havosini avtotransport bilan ifloslanishini ekologo gigienik baholash.

7- **mavzu.** Atmosfera havosini sanoat korxonalari chiqindilari bilan ifloslanishini sanitariya muxofazalashda loyihalarni sanitariya ekspertizasi.

8- **mavzu.** Turar joy va jamoat binolarini rejalashtirishning gigienik asoslari (turar joy, yotoqxonalar, mehmonxonalar va kazarmalar misolida)

9- **mavzu.** Aholiga maishiy xizmat kursatish muassasalari gigienasi (hammom, cho'milish basseynlari, kirxonalarga qo'yiladigan gigienik talablar)

10- **mavzu.** Davolash profilaktika muassasalari qurilishi, rejalashtirilishi va jihozlanishiga gigienik talablar. (yuqumli kasalliklar shifoxonalari, tug'ruqxonalar va bolalar shifoxonalari)

11- **mavzu.** Davolash profilaktika muassasalari qurilishi, rejalashtirilishi va jihozlanishiga gigienik talablar. (Somatik shifoxonalari)

12- **mavzu.** Isitish, ventilyasiya, yoritilganlikka qo'yiladigan gigienik talablar 13- mavzu. Aholi turar joylarini rejalashtirishi va qurilishining gigienik asoslari.

14- **mavzu.** Qishloq aholi turar joylarini rejalashtirishning gigienik asoslari

15- mavzu. Seliteb mintaqalarni rejalashtirishni gigienik asoslari va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

9-10-semestr:

1- mavzu. SEX Kommunal gigiena bo'limida ish yuritish. Kommunal gigiena sohasida qonunchilik

2- mavzu. Davolash profilaktika muassasalari va ularga kuyiladigan gigienik talablar (Seminar)

3- mavzu. JSN. Toshkent sh. SEX sanitariya-gigiena va bakteriologik laboratoriyasi ish faoliyati bilan tanishishi.

4- mavzu. JSN. Sport sog'lomlashtirish majmualarini va sport inshootlarini sanitariya tekshiruvdan o'tkazish.

5- mavzu. JSN. Aholi turar joylarini sanitariya tozalash tizimini tashkil qilinishini gigienik baholash. (Maxsustrans)

6- mavzu. JSN. Aholi turar joylarini sanitariya tozalash tizimini tashkillashtirilganligini gigienik baholash. (Toshkent shahar YUnus-obod tuman chiqindi yig'ish stansiyasi)

7- mavzu. JSN. Dori vositalarini tayyorlash dorixonasini sanitariya tekshirish.

8- mavzu. JSN. Madaniy -tomoshagox va ma'rifiy oqartuv ob'ektlarini sanitariya tekshirish. (G'.G'ulom nomidagi madaniyat va istiroxat bog'i).

9- mavzu. JSN. Aholi turar joy mintakasida fizik omillarni o'rganish.

10- mavzu. JSN. Tashkiliy uslubiy ishlar, SEX Kommunal gigiena bo'limi tashkiliy, rejalashtirish, hisob hisobga olish ishlarining o'ziga xosligi.

11- mavzu. JSN. Ekologiya bo'limi ish faoliyati bilan tanishish.

12- mavzu. JSN. Er osti suv ta'minoti ma'nbalarning sanitariya tekshirish. 13-mavzu. JSN. Maishiy xizmat ko'rsatish muassasalarini sanitariya tekshirish (sartoroshxonalar)

14- mavzu. JSN. Ochiq suv ta'minoti bosh inshootlarini sanitariya tekshirish (Qodriya vodoprovod inshootlari)

15- mavzu.. JSN. Toshkent shahar aholisi uchun ichimlik suvi tayyorlaydigan vodoprovod stansiyasi bilan tanishish. (Boz-su vodoprovod stansiyasi)

16- mavzu. JSN. CHiqindi suvlarini tozalash aeratsiya stansiyalarini sanitariya-gigienik tekshirish (BSA).

17- mavzu. JSN. CHiqindi suvlarini tozalash bosh inshootlarini sanitariya nazoratdan o'tkazish (Salar aeratsiya stansiyasi).

18- mavzu. Aholi turar joylarini rejalashtirish gigienasi.

19- mavzu. JSN. Aholi turar joylardagi atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalarni kuzatuv postlari ma'lumoti asosida o'rganish.

20- mavzu. Turar joy va jamoat binolari gigienasi

21- mavzu. Atmosfera havosini sanitariya muhofazalash gigienasi

22- mavzu.. Maishiy xizmat ko'rsatish muassasalariga qo'yiladigan gigienik

talablar(xammomlar, kirxonalar)

23- mavzu. Suv xavzalarini sanitariya muhofazalash gigienasi

24- mavzu. Suv va ichimlik suv ta'minoti gigienasi

4. Amaliy (seminar) mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha umumiyko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amalqilinadi:

-Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;

-O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;

-Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;

-Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash

4.1.Modul davomida egalanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

1.Aholining kasallanishini o'rganish

2. O'lim sabablarini o'rganish

3. SEX faoliyatini rejalashtirish

4. Sog'lomlashtirish tadbirlarining kompleks rejasini tuzish

5. Yillik hisobot asosida dsnm-ning faoliyatini tahlil qilish

6. Kommunal ob'ektlarning qurilishi uchun er maydonini ajratilishi bo'yicha sanitariya xulosasini berish

7. Markazlashgan suv ta'minoti uchun suv manbaidan foydalanish mumkinligi haqida xulosa chiqarish

8. Turar-joy binolari, madaniy – maishiy ob'ektlar, davolash-profilaktika muassasalarini foydalanishga qabul qilish

9. Nazorat ostidagi ob'ektlarda sanitariya qoidalar va gigienik me'yorlarning buzilganligi uchun ma'muriy choralar va jarimalarnirasmiylashtirish

10. Ichimlik suvining laboratoriya tekshirishi natijalarini baholash

11. Xonalarning mikroiqlim ko'rsatkichlarini tekshirish va baholash

12. Xonalarning insolyasiya, tabiiy va sun'iy yorug'lik ko'rsatkichlarini tekshirish va baholash

13. Turar joy binolari xonalarning havoning harakat tezligini tekshirish vabaholash

14. Xonalarning insolyasiya, tabiiy va sun'iy yorug'lik ko'rsatkichlarini tekshirish va baholash

15. SHovqin va tebranish jadalligini tekshirish va baholash

16. Xonalarni shamollatish samaradorligi va havo almashinish karraliginianiqlash.

5. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

5.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzular:

5-6 semestr:

1. Kommunal gigiena modulini rivojlanishidagi vatandosh olimlarning hissalarini o'rganish.
2. Ichimlik suvi ta'minotining asosiy manbalari va ularni ekologo- gigieniktavsiflash.
3. Suv ta'minotidagi suvning sifatidan kelib chiqqan xolda ichimlik suvining sifatini yaxshilash usullarini ilmiy asoslash.
4. Sinamali koagulyasiya tizimini tuzish.
5. Aholi yashash joylarini qattiq maishiy chiqindidan sanitariya tozalashning rejasini tuzish.
6. Suv havzalarini ifloslantiruvchi ma'nbalarni ekologo-gigienik tavsiflash.
7. CHiqindi suvlarni tozalash bosqichlarini ilmiy asoslash va tuzish. 8. Suv havzalariga chiqindi suvlarni tashlash sharoitlarini aniqlash.
9. Sinamali xlorlash tizimini tuzish.
10. CHiqindi suvlarning qiyosiy tavsiflash tizimini tuzish.

7-8 semestr:

1. Atmosfera havosi gigienasi muammolarini o'rganish bo'yicha vatandosh olimlarning hissalarini o'rganish.
2. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy manbalari va ularni ekologo- gigienik tavsiflash.
3. Atmosfera havosini sanitariya muhofazalash chora tadbirlarini ilmiyasoslash.
4. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalarni sanitariya tekshirish tizimini tuzish.
5. Turar joy binolarini sanitariya tekshirish tizimini tuzish.
6. DPM qurilish tizimini gigienik baholash.
7. DPMLarda ichki infeksiyani oldini olish profilaktik chora tadbirlarini ishlab chiqish.
8. Talabalar turar joylarini sanitariya tekshiruv dalolatnomasini to'ldirish.
9. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi ma'nbalarni mustaqil ravishda sanitariya tavsilotlarini tuzish va ekologo-gigienik baholash.
10. Atmosfera havosini sanitariya muhofazalash bo'yicha mustaqil ravishda adabiyotlar asosida profilaktikaning yangi samarali usullari va yo'llari ilmiy asoslash.

9-10 semestr:

1. Ma'muriy mintqa mavzularini qurilish tizimini gigienik baholash.
2. SEX kommunal gigiena bo'limi ish rejasini tuzish.
3. Nazorat ostidagi kommunal ob'ektlarni sanitariya tekshiruv dalolatnomasini to'ldirish.
4. Atrof muhitni ifloslantiruvchi ma'nbalarni mustaqil ravishda sanitariya tavsilotlarini tuzish va ekologo-gigienik baholash.
5. Tashqi muhit ob'ektlarining sanitariya muhofazalash bo'yicha mustaqil ravishda

adabiyotlar asosida profilaktikaning yangi samarali usullari va yo'llari ilmiy asoslash.

6. SEX kommunal gigiena bo'limi yillik hisobotini tuzish.
7. SEX kommunal gigiena laboratoriyasi ish rejasini tuzish.
8. Tashqi muhit omillarini tozalik darajasi monitoringini olib borishrejasini tuzish.
9. Kommunal gigiena bo'limida ish yuritish hujjatlarini rasmiylashtirish.
10. Kommunal ob'ektlarning ekologo-gigienik kartasini tuzish.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

- Kommunal gigiena moduli bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar.
- modul tizimida turli xil keys,
- vaziyatli masala;
- krossvordlar shaklida amalga oshiriladi.

5.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

- Kommunal gigiena moduli bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar.
- modul tizimida turli xil keys,
- vaziyatli masala;
- krossvordlar shaklida amalga oshiriladi.

6. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari.

Talaba:

6 semestr yakunida:

- kommunal gigiena modulining rivojlanish bosqichlari va usullari;
- kommunal gigiena shifokorining professional xizmatlari;
- kommunal gigiena shifokor kasbiga malakaviy va ahloqiy talablari;
- aholi salomatligini mustahkamlash maqsadida ichimlik suviga va suv havzalariga bog'liq bo'lgan turli kasalliklarini oldini olish, ichimlik suvi va suv havzalarini ekologik holatni baholash;
- aholi yashash joylarida sanitariya sharoitlarni xususan suv ta'minotini yaxshilash uchun kerak bo'ladigan gigienik meyorlarni va profilaktik tadbirlar kommunal gigiena modulini gigiena modullari majmuida tutgan o'rni;
- suv havzalarini sanitariya muhofazalashdagi profilaktik chora tadbirlarning o'rni
- kommunal gigiena modulining maqsadi, vazifasi;
- operatsion tizimlar, elektron pochta, konferensiyalar va taqdimotlarni tashkillashtirish to'g'risida *tasavvurga ega bo'lishi*;
- kommunal gigiena modulini gigiena modullari majmuida tutgan o'rni;
- kommunal gigiena modulining maqsadi, vazifasi;
- kommunal gigiena, ichimlik suvi gigienasi va suv havzalarini sanitariya muhofazalash gigienasi bo'limlarining maqsadi va vazifalarini;
- ichimlik suvi va odam organizmining o'zaro bog'liqligining asoslarini;
- ichimlik suvining organizmga ta'sir etish xususiyatlari, ijtimoiy-gigienik omillarni;
- gigienik va sog'lomlashtiruvchi tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishning asosiy

prinsiplarini; - *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

- ichimlik suvi, suv ta'minoti ma'nbalaridan, suv havzalari suvidan va chiqindi suvlardan olingan sinamalarni laboratoriya tekshiruv natijalarini interpretatsiya qilish, ekologik holatni baholash;
- ichimlik suvi ta'minoti ma'nbalari, vodoprovod inshootlarida, chiqindi suvlarni tozalash stansiyalarida davlat sanitariya nazorati tekshiruvini rejalashtirish;
- ichimlik suvi, suv ta'minoti ma'nbalaridan, suv havzalari suvidan va chiqindi suvlardan olingan sinamalarni laboratoriya tekshiruv natijalaridan foydalanish;
- ichimlik suvi ta'minoti va suv havzalari gigienasi bo'yicha ekologik vaziyatni to'g'ri baholash va barqarorlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

aholi o'rtasida ichimlik suvi va suv havzalariga bog'liq masalalar bo'yicha sanitariya-oqartuv ishlarini tashkil qilish;

- suv ta'minoti ma'nbalarini va suv havzalarini sanitariya muhofazalash bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- suv ta'minoti ma'nbalarini va suv havzalarini baholash bo'yicha vizual, instrumental, hisoblash va laboratoriya tekshirishlarini bajarish;
- vodoprovod inshootlarini va chiqindi suvlarni tozalash stansiyalarini sanitar tekshirish va tavsiflashni;
- laboratoriya tekshirishlari uchun turli manbalardan suv namunalarini olish, suvning organoleptik xossalarini aniqlashni;
- aholini ichimlik suviga va suv havzalariga bog'liq ekologik xavf monitoringini o'tkazish bo'yicha *malakalariga (shu jumladan amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.*

8 semestr yakunida:

- aholi salomatligini mustahkamlash maqsadida atmosfera havosiga bog'liq bo'lgan turli kasalliklarini oldini olish, ekologik holatni baholash;
- aholi yashash joylarida sanitariya sharoitlarni yaxshilash uchun kerak bo'ladigan gigienik meyorlarni va profilaktik tadbirlar kommunal gigiena modulini gigiena modullari majmuida tutgan o'rni;
- atmosfera havosi va turar joy va jamoat binolari gigienasini o'rganishning maqsadi, vazifasi;
- atmosfera havosi gigienasida kommunal gigiena vrachlarning ish yuritish shakl va usullarini
- ma'muriy xududda joylashgan atmosfera havosini ifloslantiruvchi ma'nbalar va kommunal ob'ektlarni (turar joy va jamoat binolari) davlat sanitariya nazoratidan o'tkazishni
- O'zR tibbiyot sohasining rivojlanish strategiyasi va boshqaruv tuzilmasi (konsepsiya, tamoyillar, asosiy yo'nalishlari) haqida;
- sog'liqni saqlash tizimi va ularda olib borilayotgan islohotlar haqida;
- sog'liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy siyosiy tamoyillari, standartlari, istiqbollari to'g'risida;
- kasalliklarning profilaktikasi jarayonida kompyuter texnologiyalarining o'rni, asosiy elementlari, Internet vositalari, axborotlar qidirish, ma'lumotlarni saqlash haqida;
- operatsion tizimlar, elektron pochta, konferensiyalar va taqdimotlarni tashkillashtirish to'g'risida *tasavvurga ega bo'lishi*;
- kommunal gigiena modulini gigiena modullari majmuida tutgan o'rni;
- atmosfera havosi gigienasi bo'limining maqsadi, vazifasi;
- nazorat ob'ektlari (atmosfera havosini ifloslantiruvchi ma'nbalar, turar joy va jamoat

- binolari), kommunal gigiena bo'yicha vrachlarning ish yuritish shakl va usullarini ma'muriy xududda joylashgan kommunal ob'ektlarni davlat sanitariya nazoratidan o'tkazishni;
- atmosfera havosining gigienasi, turar joy va jamoat binolari gigienasi bo'limlarining maqsadi va vazifalarini;
 - atmosfera havosi va odam organizmining o'zaro bog'liqligining asoslarini;
 - turar joy va jamoat binolari mikroiklimi ko'rsatkichlarining inson organizmga ta'sir etish xususiyatlari, ijtimoiy-gigienik omillarni;
 - gigienik va sog'lomlashtiruvchi tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishning asosiy prinsiplarini;
 - atmosfera havosida ifloslantiruvchi moddalarning gigienik me'yorlashtirish va reglamentlashtirishning asoslarini *bilishi va ulardan foydalana olishi*;
 - atmosfera havosidan olingan sinamalarni laboratoriya tekshiruv natijalarini interpretatsiya qilish, ekologik holatni baholash;
 - turar joy binolarining qurilishida yangi qurilish materiallari qo'llash davrida modulning zamonaviy vazifalari, sanitariya va kommunal gigiena sohasida davlat sanitariya nazorati amaliyoti ilmiy asoslari gigienik me'yorlashtirish yo'lida tadqiqotlarni kengayishi va mukamallashtirilishi sohasida;
 - turar joy va jamoat binolari gigienasida davlat sanitariya nazorati tekshiruvini rejalashtirish;
 - atmosfera havosi va turar joy jamoat binolaridan havodan, fizik omillardan olingan sinamalarni laboratoriya tekshiruv natijalaridan foydalanish;
 - atmosfera havosiga bog'liq ekologik vaziyatni to'g'ri baholash va barqarorlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
 - atmosfera havosini sanitariya muhofazalash bo'yicha aholi o'rtasida sanitariya-oqartuv ishlarini tashkil qilish;
 - atmosfera havosini sanitar-muhofazalash bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
 - atmosfera havosi va turar joy, jamoat binolarini sanitariya holatini baholash bo'yicha vizual, instrumental, hisoblash va laboratoriya tekshirishlarini bajarish;
 - turar joy va jamoat binolari ob'ektlarni sanitar tekshirish va tavsiflashni;
 - xona havosining mikroiklim ko'rsatkichlarini o'lchash va baholashni;
 - laboratoriya tekshirishlari uchun atmosfera havosidan namunalari olish, havoning ifloslanish darajasini aniqlashni;
 - laboratoriya tekshirishlari uchun tuproq namunalari olish va ularni tekshirishga tayyorlashni;
 - atmosfera havosini ekologik xavf monitoringini o'tkazish bo'yicha *malakalariga(shu jumladan amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.*

10 semestr yakunida:

- aholi salomatligini mustahkamlash maqsadida tabiiy va antropogen omillar bilan bog'liq bo'lgan turli kasalliklarini oldini olish, ekologik holatni baholash;
- aholi yashash joylarida sanitariya sharoitlarni yaxshilash uchun kerak bo'ladigan gigienik me'yorlarni va profilaktik tadbirlar kommunal gigiena modulini gigiena modullari majmuida tutgan o'rni;
- nazorat ob'ektlarida kommunal gigiena bo'yicha vrachlarning DSN bo'yicha ish yuritish shakl va usullarini
- ma'muriy xududda joylashgan kommunal ob'ektlarda ogohlantiruvchi sanitariya nazoratidan o'tkazishni

- ma'muriy xududda joylashgan kommunal ob'ektlarda joriy sanitariya nazoratidan o'tkazishni
 - O'zR tibbiyot sohasining rivojlanish strategiyasi va boshqaruv tuzilmasi (konsepsiya, tamoyillar, asosiy yo'nalishlari) haqida;
 - sog'liqni saqlash tizimi va ularda olib borilayotgan islohotlar haqida;
 - sog'liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy siyosiy tamoyillari, standartlari, istiqbollari to'g'risida;
 - kasalliklarning profilaktikasi jarayonida kompyuter texnologiyalarining o'rni, asosiy elementlari, Internet vositalari, axborotlar qidirish, ma'lumotlarni saqlash haqida;
 - operatsion tizimlar, elektron pochta, konferensiyalar va taqdimotlarni tashkillashtirish to'g'risida *tasavvurga ega bo'lishi*;
 - kommunal gigiena modulini gigiena modullari majmuida tutgan o'rni;
 - kommunal gigiena modulining maqsadi, vazifasi;
 - kommunal gigiena bo'yicha nazorat ob'ektlarida vrachlarning ish yuritish shakl va usullarini
 - ma'muriy xududda joylashgan kommunal ob'ektlarda ogohlantiruvchi sanitariya nazoratidan o'tkazishni;
 - ma'muriy xududda joylashgan kommunal ob'ektlarda joriy sanitariya nazoratidan o'tkazishni;
 - kommunal gigiena va uning har bir bo'limining maqsadi va vazifalarini;
 - atrof muhit va odam organizmining o'zaro bog'liqligining asoslarini;
 - atrof muhit omillarining organizmga ta'sir etish xususiyatlari, ijtimoiy-gigienik omillarni;
 - gigienik va sog'lomlashtiruvchi tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishning asosiy prinsiplarini;
 - atrof muhit omillarini gigienik me'yorlashtirish va reglamentlashtirishning asoslarini *bilishi va ulardan foydalana olishi*;
 - atrof muhit ob'ekt (suv, tuproq, havo, fizik omillar va x.o.) laridan olingan sinamalarni laboratoriya tekshiruv natijalarini interpretatsiya qilish, ekologik holatni baholash; xalq xo'jaligi tarmoqlarini kimyolashtirish darajasini rivojlanishi davrida modulning zamonaviy vazifalari, sanitariya va kommunal gigiena sohasida davlat sanitariya nazorati amaliyoti ilmiy asoslari gigienik meyorlashtirish yo'lida tadqiqotlarni kengayishi va mukamallashtirilishi sohasida;
 - kommunal ob'ektlarda davlat sanitariya nazorati tekshiruvini rejalashtirish;
 - tashqi muhit ob'ekt (suv, tuproq, havo, fizik omillar va x.o.) laridan olingan sinamalarni laboratoriya tekshiruv natijalaridan foydalanish;
 - ekologik vaziyatni to'g'ri baholash va barqarorlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
 - aholi o'rtasida atrof muhitni muhofazalash bo'yicha sanitariya- oqartuv ishlarini tashkil qilish;
 - tashqi muhitni sanitar-muhofazalash bo'yicha profilaktik chora- tadbirlarni ishlab chiqish;
 - atrof muhit omillarini baholash bo'yicha vizual, instrumental, hisoblash va laboratoriya tekshirishlarini bajarish;
 - ob'ektlarni sanitar tekshirish va tavsiflashni;
 - xona havosining mikroiklim ko'rsatkichlarini o'lchash va baholashni;
 - laboratoriya tekshirishlari uchun turli manbalardan suv, tuproq, chiqindi suv va atmosfera havosidan namunalarini olish, ularning suvning organoleptik xossalarini aniqlashni;
 - laboratoriya tekshirishlari uchun tuproq namunalarini olish va ularni tekshirishga tayyorlashni;
- ekologik xavf monitoringini o'tkazish bo'yicha *malakalariga(shu jumladan amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.*

7. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.

- Ma'ruza.

- Amaliy mashg'ulotlar.

- Videofilmlar, multimediyali va o'qituvchi kompyuter dasturlardan, o'qitish metodikasidagi yangi texnologiyalardan, mavzular bo'yicha nazariy bilimlarni so'rashdan foydalaniladi;

- bakalavrlarning mustaqil ishi, individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash, referatlar yozish, testlar, vaziyatli masalalar va boshqalar.

8. Kreditlarni olish uchun talablar.

Joriy, oraliq nazoratlarini kafedrada ogizaki topshirish, yakuniy nazorat bo'yicha ogizaki yoki test shaklida muvaffaqiyatli topshirish.

8. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

8.1. Asosiy adabiyotlar:

1. Iskandarov T.I., Otabaev SH.T., Iskandarova G.T. Kommunal gigiena. Darslik - Toshkent. "YAngi asr avlodi nashriyoti". 2019 y.
2. Otabaev SH.T., Iskandarov T.I., Iskandarova G.T. Kommunal gigiena. Darslik - Toshkent. "YAngi asr avlodi nashriyoti". 2010 y.
3. Otabaev SH.T., Iskandarov T.I. Kommunal gigiena. Darslik (lotin)- Toshkent. "YAngi asr avlodi nashriyoti". 2007 y.
4. Iskandarov T.I. tahriri ostida Kommunal gigiena fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun qo'llanma (lotin)- Toshkent "YAngi asr avlodi nashriyoti". 2008 y.

8.2. Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Iskandarova G.T., Iskandarov T.I., Romanova L.X. "YAngi mahalliy pestitsidlarning gigiena va toksikologiyasi". O'quv uslubiy qo'llanma. – Toshkent. SGKKITTI nashriyoti. 2016 y.
2. Iskandarov T.I., Iskandarova G.T., Romanova L.X. Gigiena i toksikologiya novyx pestitsidov. Uchebno-metodicheskoe posobie.- Toshkent. SGKKITTI nashriyoti. 2014 g.
3. Iskandarov T.I., Iskandarova G.T., Romanova L.X. "Metodologiya kompleksnogo i uskorennoogo normirovaniya pestitsidov v ob'ektax okrujayushchey sredy" Metodologicheskoe posobie. -Tashkent. SGKKITTI nashriyoti. 2014 g.
4. Iskandarov T.I., Iskandarova G.T., Ibragimova G.Z. "Gigienicheskie normy godovoy minimalnoy potrebnosti predmetov sanitarii, gigieny dlya naseleniya". SanPiN RUz №0323-15.- Tashkent. 2015 g.
5. Iskandarov T.I., Iskandarova G.T., Romanova L.X. "Gigienicheskaya klassifikatsiya pestitsidov po toksichnosti i opasnosti". SanPiN RUz №0321-15- Tashkent. 2015 g.
6. Iskandarov T.I., Iskandarova G.T., Romanova L.X. "Pestitsidlarning zaharliligi va xavfliligi bo'yicha gigienik tavsifi". O'zR SanQ vaM №0321-15- Toshkent. 2015 y.

7. Iskandarov T.I., Iskandarova G.T., Romanova L.X., Sarimsakov A.X., Sirojdinov SH., Normatova SH.A. "Atrof muhitda va oziq- ovqat maxsulotlarida pestitsidlarining gigienik meyorlari". O'zR SanQ vaM №0303-13 ga 1-chi qo'shimcha -Toshkent. 2015 y.
8. Iskandarov T.I., Iskandarova G.T., Magay M.P., Tashpulatova G.A., Adilov U.X. "Санитарные нормы общей и локальной нормы на рабочих местах". SanPiN RUZ №0325-16 -Tashkent. 2016 g.
9. Iskandarov T.I., Iskandarova G.T., Magay M.P., Tashpulatova G.A., Adilov U.X. "Санитарные нормы общей и локальной нормы на рабочих местах". SanPiN RUZ №0326-16 -Tashkent 2016 g.
- 10.Pod redaksey Mazaeva V.T.Kommunalnaya gigiena. Uchebnik. chast 1. (rus). - Moskva."GEOTAR-Media".2005 g.
- 11.Pod redaksey Mazaeva V.T.Kommunalnaya gigiena. Uchebnik. chast 2. (rus). - Moskva."GEOTAR-Media".2007 g.
- 12.Pod redaksey GoncharukE.M. Kommunalnaya gigiena.-Kiev. 2007 g.Zdorovya.
- 13.GOSTы RUz, SanPiNy, KMK, SP, prikazy.
- 14.Zakonodatelnye dokumenty: "Ob ohrane zdorovya grazhdan", "Trudovoy kodeks", "O Sanitarno- epidemiologicheskoy blagopoluchie naseleniya RUZ".
- 15.Teksty leksii po kommunalnoy gigeny -Tashkent. 2009 g.

8.3.Internet saytlari:

1. Tma.uz. resursi
- 2.hth: //lib.ipin.ru/offer-50909.html,
- 3.hth: //www.knizhniy.om/offers/73679.html,
- 4.http: //www.intersen.ru/gig_om/gig.html
- 5.www.ziyonet.uz;
- 6.www.lex.uz;
- 7.www.gov.uz.

O'qitish natijalari:

Modulni yakunlaganda talaba biladi:

6 semestr yakunida:

1. Kommunal gigiena modulini gigiena modullari majmuida tutgan o'rni;
2. Kommunal gigiena modulining maqsadi, vazifasi;
3. Kommunal gigiena, ichimlik suvi gigenasi va suv havzalarini sanitariya muhofazalash gigenasi bo'limlarining maqsadi va vazifalarini;
4. Ichimlik suvi va odam organizmining o'zaro bog'liqligining asoslarini;
5. Ichimlik suvining organizmga ta'sir etish xususiyatlari, ijtimoiy- gigienik omillarni;
6. Gigienik va sog'lomlashtiruvchi tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishning asosiy prinsiplarini;

8 semestr yakunida:

7. Kommunal gigiena modulini gigiena modullari majmuida tutgan o'rni;
8. Atmosfera havosi gigienasi bo'limining maqsadi, vazifasi;
9. Nazorat ob'ektlari (atmosfera havosini ifloslantiruvchi ma'nbalar, turar joy va jamoat binolari), kommunal gigiena bo'yicha vrachlarning ish yuritish shakli va usullarini ma'muriy xududda joylashgan kommunal ob'ektlarni davlat sanitariya nazoratidan o'tkazishni;
10. Atmosfera havosining gigienasi, turar joy va jamoat binolari gigienasi bo'limlarining maqsadi va vazifalarini;
11. Atmosfera havosi va odam organizmining o'zaro bog'liqligining asoslarini;
12. Turar joy va jamoat binolari mikroiklimi ko'rsatkichlarining inson organizmga ta'sir etish xususiyatlari, ijtimoiy-gigienik omillarni;
13. Gigienik va sog'lomlashtiruvchi tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishning asosiy prinsiplarini;
14. Atmosfera havosida ifloslantiruvchi moddalarning gigienik me'yorlashtirish va reglamentlashtirishning asoslarini

10 semestr yakunida:

15. Kommunal gigiena modulini gigiena modullari majmuida tutgan o'rni;
16. Kommunal gigiena modulining maqsadi, vazifasi;
17. Kommunal gigiena bo'yicha nazorat ob'ektlarida vrachlarning ish yuritish shakli va usullarini
18. Ma'muriy xududda joylashgan kommunal ob'ektlarda ogohlantiruvchi sanitariya nazoratidan o'tkazishni;
19. Ma'muriy xududda joylashgan kommunal ob'ektlarda joriy sanitariya nazoratidan o'tkazishni;
20. Kommunal gigiena va uning har bir bo'limining maqsadi va vazifalarini;
21. Atrof-muhit va odam organizmining o'zaro bog'liqligining asoslarini;
22. Atrof-muhit omillarining organizmga ta'sir etish xususiyatlari, ijtimoiy-gigienik omillarni;
23. Gigienik va sog'lomlashtiruvchi tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishning asosiy prinsiplarini;
24. Atrof-muhit omillarini gigienik me'yorlashtirish va reglamentlashtirishning asoslarini

Taqrizchilar:

Madreimov A.

-QTI, "Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya" kafedrası professori, tibbiyot fanlari doktori.

Absattarova V.K.

-Qoraqolpog'iston Respublikasi SEO va jamoat salomatligi boshqarmasi rahbar muovini, tibbiyot fanlari nomzodi.